

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

ORGANIZMDA ALLERGIK REAKTSIYALARINI RIVOJLANISH MEXANIZMI

M.S.Usmonova

*Qo`qon davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi P.f.f.d. (PhD), dotsent*

Sh.A.Tursunova

*Qo`qon davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi o`qituvchisi*

G.A.Rasulova

*Qo`qon DPI Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo`nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada allergetik reaktsiyalarning organizmda gumoral va xujayraviy immunologik reaktsiyalar bilan kechuvchi kompleks xolatlari va organizmda allergik xolatlarni miqdor va sifat jihatidan o`zgarishini xaqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Allergiya, nekroz, shok, ximergik va kitergik allergik reaktsiyalar, allergen, antigen, gapten, aktiv va passiv sensibilizatsiya, antigen-antitelo kompleksi, komplement tizimi va boshqalar.

Kirish. Allergiya (grekchadan – boshqacha ta'sir) degan ma'noni anglatadi. Organizmni antigen tabiatli moddalarga yallig`lanish, bronx muskullarini spazmi, nekroz, shok va boshqa o`zgarishlar bilan namoyon bo`luvchi sifat jihatdan o`zgargan reaktsiyasi tushuniladi.

Boshqacha aytganda, allergiya bu organizmda gumoral va hujayraviy immunologik reaktsiyalar bilan kechuvchi kompleks buzilishlar majmuasidir.[1,2]

Allergiya deb, tashqi muhitni turli ta'sirlari natijasida organizmni o`ta sezuvchanligini ortishi bilan boradigan reaktivlikni bir ko`rinishiga aytildi (Ado).

Organizmda allergik xolatlarni miqdor va sifat jihatidan o`zgarishini turli atamalar bilan ta'riflanadi.

Ado allergik reaktsiyalarni quyidagicha tabaqladidi:

- 1) chin va soxta
- 2) ximergik va kitergik
- 3) umumiy va mahalliy

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

Soxta allergik reaktsiyalar tashqi belgilari bilan chinga o`xshaydiyu, uning rivojlanishida antigen+antitana bo`lmaydi, m: Shvartsman fenomeni.

Chin allergik reaktsiyalarni rivojlanishida antigen+antitana reaktsiyasi yotadi. Antigen + antitana komplekslari qayerda joylashganiga qarab: ximergik va kitergikka bo`linadi.

Ximergik allergik reaktsiyalarda antigen+antitana kompleksi organizmdagi biologik suyuqliklarda bo`ladi, ushbu allergik reaktsiyani rivojlanishida ximergik mediatorlarni ta'siri muhim rol o`ynavydi.

Kitergik allergik reaktsiyalarda antigen+antitana kompleksi hujayra satxida hosil bo`ladi.

Ximergik va kitergik allergik reaktsiyalarda patologik jarayonni qayerda joylashganligiga qara: umumiy va mahalliy bo`ladi.

Ximergik umumiy allergik reaktsiyalarga anafilaktik shok kirsa, mahalliyga Artyus, Overi fenomenlari, Kvinke shishi kiradi.

Kitergik umumiy allergik reaktsiyalarga esa kolagenozlar misol bo`lsa, mahalliyga tuberkulin sinamasi kiradi. [4]

Etiologiya. Allergiyani antigenlik hususiyatiga ega bo`lgan, organizmda gumoral va hujayra tipidagi immunologik reaktsiya chaqiruvchi moddalar chaqiradi.

Allergenlarni sinflanishi. Allergenlar kelib chiqishiga ko`ra:

Ekzogen	Endogen
<p>Organizmga qanday tushganligiga qarab:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) ingalyatsion b) oziq-ovqat v) kontakt g) in'yection allergenlar 	<p>Tabiiy</p> <p>Ayrim normal organ va to`qimalar: miya, gavhar, jinsiy bez, qalqonsimon bez</p>
<p>Allergenlar tabiatiga ko`ra:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) o`simlik b) hayvon v) infektsion g) sintetik 	<p>Ortirligani</p> <p>Organizmga tashqi muxit ta'sirida xususiy oqsillar autoantigenga aylanib qoladi</p>
<p>Allergenlarni manbai ko`ra:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) maishiy b) ximiyaviy 	

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

- | | |
|---|--|
| v) oziq-ovqat
g) dorilar
d) epidermal | |
|---|--|

Organizmning organ, to`qima va hujayralari juda katta miqdorda oqsil tutadi, bularning barchasi potentsial antigenlardir. 1901-1904 yillarda to`qima va organlarda turga xos spetsifik antigenlarga ega ekanligini aniqlashdi. Turga xos antigenlarga al`bumin va globulinlarni kiritish mumkin. Oqsil molekulalarini antigenlik xususiyatini paydo bo`lishini eng muxim tomni, uning tarkibidagi aromatik halqaning mavjudligidir. Antigenlarni molekulyar massasi 10000 dan kam bo`lmasligi kerak. Oqsilni massasi qancha katta bo`lsa, uning antitelo xosil qilish xususiyati ham shuncha yuqori bo`ladi. Antigenlarni spetsifikligi ularning kimyoviy tarkibiga bog`liq. [8]

Gaptenlar organizmda bir necha yo`llar bilan ta`sir etib, allergiya chaqirish mumkin.

1) Gaptenlar, organizmni makromolekulasi (shlepper) bilan kompleks hosil qiladi va antitela sintez qilishini ta`minlaydi, antitela ta`siri gaptenga qarshi yo`nalgan bo`lib, tashuvchilarga esa aloqasi yo`q.

2) Organizm tomonidan sintez qilingan antitela gaptenga faqat kompleksda bo`lgandagina ta`sir etadi.

Bundan tashqari, organizmga fizik, ximik ta`sirlanishi natijasida ham allergiya chaqirish mumkin, bu omillar ta`sirida organizmda allergenlar sintezlanadi, yashirin antigen, determinantlardan demaskirovka yo`li bilan sintezlanadi yoki molekulalarni denaturatsiyasi tufayli yuzaga keladi.

Allergik reaktsiyalarni sinflanishi

I. Allergenlarni kelib chiqishiga ko`ra:

- a) ekzogen allergenlar yuzaga chiqargan allergik reaktsiyalar
- b) autoallergik reaktsiyalar

II. Klinik namoyon bo`lishiga ko`ra:

- a) tezkor allergik reaktsiyalar
- b) sekin allergik reaktsiyalar

III. Allergenni immun tizim effektori bilan qayerda va qanday munosabatda bo`lganligiga qarab:

- I, II, III, VI, V tiplar

IV. Patogenezi bo`yicha:

TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

a) Gumoral tipdagi allergik reaktsiyalar Djell va Kumbs bo`yicha (I, II, III-tip reaktsiyalar)

b) Hujayra tipidagi allergik reaktsiyalar Djell va Kumbs bo`yicha (IV- tip reaktsiya)

Allergik reaktsiyalarni yuzaga chiqishida allergenlardan tashqari organizm holati ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, 2 xil allergiya tafovut etiladi, ya`ni sog`lom va kasal organizmda kechadigan reaktsiyalar.

Xulosa: Sog`lom organizmdagi allergiyada, ko`p miqdordagi antigenga normal dozada antitela va BAM ishlab chiqariladi. Kasallik kelib chiqish mexanizmida immun tizimini va BAM ishlab chiqaruvchi tizimni zo`riqib ishlashidan kelib chiqadi.

Kasal organizmda arzimagan antigen dozasiga javoban ham, allergik reaktsiya chiqishi mumkin, lekin sog`lom organizmgaga bunday holat ro`y bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.N.X.Abdullayev va boshqalar “Patofiziologiya” T. 1998 y.
- 2.Zayko N.N. i dr. “Patofiziologiya” M, 2007g.
- 3.A. Ado, L.M. Ishimova. Patologicheskaya fiziologiya, 1980g.
- 4.N.X. Abdullayev va boshkalar. «Patologik fiziologiyadan ukuv kullanma». Toshkent, 1999 y.
- 5.N.X. Abdullayev va boshqalar. «Patologik fiziologiyadan o`quv qo`llanma». Toshkent, 1994 y.
- 6.A.A. Xusinov. Patologik fiziologiyadan o`quv qo`llanma. Toshkent, 2004 y.
- 7.A.D. Ado i drugiye. Patologicheskaya fiziologiya. M., 2001g
- 8.A.Sh. Zaychik, L.P. Churilov. Овощная патофизиология. L., 2001g.
- 9.V.A. Chereshnev, B.G. Yushkov. Patologicheskaya fiziologiya. M., 2001g.
- 10.A.V.Ataman “Patologicheskaya fiziologiya v voprosax i otvetax” 2000g.